

## MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING QO'SHNICHILIK MUNOSABATLARI YANGI BOSQICHDA

Jo'rayev Sherzodbek Ilhomjonovich

Farg'ona viloyati Quva tumani

FarDu tarix yo'nalishi 2-bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari yangi bosqichga ko'tarilishi, tarixi tahlili va xulosalariga bag'ishlangan. bilan munosabatlarining

**Kalit so'zlar:** qardoshlik, summit, hamkorlik, muommolar, barqaror, iqtisodiy, xavsizlik. Neighborly relations between the Central Asian states are at a new stage.

**Abstract:** This article is devoted to the analysis, analysis and conclusions of the rise of Uzbekistan's relations with Central Asian countries to a new level.

**Keywords:** brotherhood, summit, cooperation, challenges, stability, economy, security.

Добрососедские отношения между государствами Центральной Азии находятся на новом этапе.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу, анализу и выводам отношений Узбекистана со странами Центральной Азии на новый уровень.

**Ключевые слова:** братство, саммит, сотрудничество, вызовы, стабильность, экономика, безопасность.

Mustaqil O'zbekiston uchun tashqi siyosatda Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabat asosiy masala sifatida qaraladi. Markaziy Osiyo xalqlari ruhiyati asrlar mobaynida bir-biriga tutashib, ma'naviy, diniy, axloqiy munosabatlari uyg'unlashib ketgan, yashash tarzları urchodatlari mushtarak bo'lib, yagona ulkan jonli vujudga aylangan. Shuning natijasida qardosh-u jondoshlik bir butunlik an'analari tarkib topgan<sup>1</sup>. Bu an'anani davom ettirish va rivojlantirish ham qardoshlik burchimiz ham, ota-bozarimizning bizga qoldirgan ulkan ishonchi va omonati desak adashmagan bo'lamiz. Buyuk Turon-Turkiston diyorida unib-o'sgan mintaqqa xalqlarining tarixi, tili, madaniyati, dini, urchodatlari va an'analarida juda ko'p umumiylilik mavjud<sup>2</sup>.

Lekin, bu umumiylilik tarixning o'sha qora davrlarida bo'lib tashlangani, chegaralar tortilgani achinarlidir. Markaziy Osiyo-qadimgi Turon xalqlari sobiq SSSR davrida turli millatlarga ajratib tashlandi. Qog'ozdagina suveren, aslida esa Markazga qaram sovet respublikalari tashkil etildi. Bu soxta siyosat tufayli an'analari, turmush tarzları, ruhiy va ma'naviy qadryatlarini bir bo'lgan turkiy xalqlar o'zbek-u qozoqqa, tojik-u qirg'iz, turkmanga bo'lib yuborildi<sup>3</sup>. Markaziy Osiyoda bir butun bo'lgan xalqlar bir-birlaridan sun'iy ravishda ajratildi.

Sobiq SSSR tarqalib ketgach, bu respublikalar ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan bir-birlariga ehtiyoj sezgani bu rost. Chunki bu xalqlar bir ariqdan suv ichgan bir xil alla eshitib yeri, dini madaniyati birlashib ketgan. Ilk bor 1993-yil yanvarda O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti Islom Abdug'aniyevich Karimov tashabbusi bilan Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining uchrashuvu Toshkentda tashkil etilgan edi. Oliy darajadagi bu uchrashuvda Markaziy Osiyo Hamdo'stligiga asos solindi. Besh davlat Qirgiziston, Qozogiston, O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston rahbarlari Hamdo'stlik haqidagi bitimga imzo chekdilar. Bu bitimni mintaqqa xalqlari zo'r mamnuniyat bilan qarshi

<sup>1</sup> Agar ogoh sen...Toshkent .Sharq-1998 -95-bet

<sup>2</sup> Milliy qadriyatlat va ijtimoiy taraqqiyot.-Toshkent''O'zbekiston'',1999- 14-bet

<sup>3</sup> Agar ogoh sen...Toshkent .Sharq-1998 -95-bet

oldilar va qo'llab-quvvatladilar<sup>4</sup>. Bu bitimning imzolanishi mustaqil qardosh respublikalarning keyingi o'zoro hamkorlik aloqalarini yanada kengayishiga olib keldi.

Mustaqillikning keyingi davrlarida Markaziy Osiyo Respublikalari o'rtasidagi davlatlar o'rtasida o'tkazilgan chegaralarga aniqlik kiritish masalasiga oydinlik kiritish hamda Amudaryo va Sirdaryodagi suv resurslaridan teng va oqilona foydalanishni hal etish zarur edi.

Shu bilan birgalikda Markaziy Osiyo mintaqasida turli siyosiy, iqtisodiy, harbiy, transport va ekalogiyaga oid muammolar saqlanib qolgan. Shuni nazarda tutadigan bo'lsak, butun mintaqani sobitqadam va barqaror rivojlanishini ta'minlash hamda majoroli vaziyatlarni oldini olish uchun hozirgi kunda ichki va tashqi muvozanatni saqlash va qo'llab -quvvatlashgina birdan bir maqbul tamoyildir. Mintaqada jug'rofiy-siyosiy muvozanatni va barqarorlikni saqlangan taqdirdagina mazkur muommolarini bartaraf etish imkonи tug'iladi. Bu esa o'z navbatida, yalpi xavfsizlikni ta'minlash muommolarini hal qilishga qo'shilgan salmoqli hissa bo'ladi<sup>5</sup>.

Mana shunday Markaziy Osiyodagi xavfsizlik iqtisodiy chegaraviy muommolarning hal etish ijobjiy tomonga burilishi 2016- yil O'zbekiston Respublikasi Prezidenti etib Shavkat Mirziyoyev Miromonovich saylangandan keyin yangi rahbar tashabbusi bilan amalga oshirildi va Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabat yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldag'i farmoni asosida tasdiqlangan 2017-2021 -yillarda "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va amaliy tashqi siyosat sohasidagi ustuvor yo'naliishlar deya tasniflangan 5.2 bandida: O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish tamoyili belgilab qo'yildi<sup>6</sup>. Yangi O'zbekiston rahbariyatining Markaziy Osiyodagi yillar davomida yeg'ilib qolgan qo'shni qardosh davlatlarning iqtisodiy ,siyosiy ijtimoiy va hatto tinch va barqaror rivojlanishiga to'siq bo'layotgan muommolarni yechish o'zaro manfaatli hamkorlikni tiklash eng asosiy maqsadi ekanligi amaliy jarayonlarda o'z ifodasini topdi. Keyingi davrlarda amaliy jarayonlarga o'tilib munosabatlar ijobjiy tomonga o'zgara boshlandi. O'zbekiston rahbari 2017 -yil Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvini ishonchli va konstriktiv ruhda muhokama etish va Markaziy Osiyo davlatlarining umumiy muommolarini birgalikda hal qilish uchun samarali platform sifatida tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi.<sup>7</sup> Bu taklif qardosh davlat rahbarlari tomonidan qo'llab quvvatlandi. Bu qanchalik to'ri yo'l ekanligini tez orada o'zini isbotladi. Bu hayotiy tashabbus qardosh xalqlarimizning hayotiy manfaatlariga mos bo'lgani uchun keng qo'llab -quvvatlandi va tezda amalga oshirildi. Birinchi sammit 2018 -yil mart oyida Qozog'iston poytaxti Nur-Sulton shahrida, ikkinchisi esa 2019- yil noyabrda Toshkent shahrida bo'lib o'tgan edi.<sup>8</sup> Bu Maslahat uchrashuvlarida mintaqadagi muommolar va barqaror rivojlanish yo'llari o'rta ga tashlandi ijobjiy tomonga hal etildi. 2021- yil 6 - avgust kuni Markaziy Osiyo davlatlarining uchinchi Maslahat uchrashuvu Turkmanistonning Avaza milliy sayyohlik zonasida bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida umumiy siyosiy iroda va birgalidagi sa'y- harakat natijasida bugun mintaqamiz yaxshi qo'shnichilik, o'zaro manfaatli hamkorlik va barqaror taraqqiyot makoniga aylanib borayotganini ta'kidladi.<sup>9</sup> Mana shunday o'zaro manfaatli uchrashuvlarning tashkil etilishi Markazi Osiyo davlatlarining iqtisodiy barqaroligini yanada rivojlantirmoqda desak adashmagan bo'lamiz. 2017- yil yakunlariga iqtisodiy aloqalar yaxshi tomonga o'zgarganini amaliy natijalar ham isbotlaydi. O'zbekiston Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston bilan tovar ayriboshlash hajmi, o'tgan yil yakunlariga ko'ra, qariyb 3 milliard dollarni tashkil etdi, ya'ni, 20 foiz ortdi. Bu borada tovar yetkazish 2 barobar ko'paydi<sup>10</sup> Keyingi yillarda ham manfaatli hamkorlik aloqalarinig davom

<sup>4</sup> Mustaqil O'zbekiston tarixi. Toshkent. "G'ofur G'ulom", 2009-641-bet

<sup>5</sup> O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid ,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari-1997-O'zbekiston-9-bet

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldag'i farmoniga ilova 5.2-122-bet

<sup>7</sup> Xalq so'zi 2021-10-sentyabr-195-son-2-bet

<sup>8</sup> Xalq so'zi 2021-7-avgust- 166- son-1-bet

<sup>9</sup> Xalq so'zi 2021-7-avgust -166-son-1-bet

<sup>10</sup>Xalq So'zi 2018-16-mart- 52-son -1-bet

etishi Markaziy Osiyo davlatlarining iqtisodiy savdo hajmlarining ortishiga asos bo'ldi. Xususan, o'tgan yilning o'zida global pandemiya sharoitiga qaramay, O'zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aylanmasi umumiy hajmda 5 milliard dollorni tashkil etgani quvonarli ko'rsatgich. Mamlakatimizning umumiy savdo aylanmasida Markaziy Osiyo davlatlarining ulushi 2019 -yildagi 12,4 foizdan 2020 yilda 13,6 foizga oshgan.<sup>11</sup> O'zbekistonning Markaziy Osipyodagi faol tashqi siyosati va islohotlari uning johon hamjamiyati e'tirofiga hamda dunyo reytinglarida yuqori pog'onalarga ko'tarilishi asosiy omil bo'lmoqda.

Xususan, Juhon bankining Statistik salohiyat indeksida O'zbekiston 2020- yilda 16 pog'onaga ko'tarilib, 146 ta mamlakat orasida 61-o'rinni egalladi. Juhon odil sudlov loyihasi tashkiloti tomonidan e'lon qilingan Huquq ustuvorligi indeksining 2021- yilgi nashrida O'zbekiston 14 pog'onaga ko'tarilgan. O'zbekiston uchun baholar 4,1 foizga oshib, bu borada eng yaxshi natija ko'rsatgan 3 ta davlatdan biriga aylandi. Global innovations indeksida O'zbekiston 2021-yilda o'tgan yildagiga nisbatan 7 pog'ona ko'tarilib, 132 ta davlat orasida 86 o'rinni egalladi va eng ko'p yuqorilagan mamlakatlar Top-10 taligiga kirdi. Juhon hayriya indeksida O'zbekiston 2018- yildagi 53-o'rindan 2021 -yilda 29- o'ringa ko'tarilib, Top -30 talikka kirdi.<sup>12</sup> Bunday statistik ma'lumotlardan shunday xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari qolaversa butun juhon hamjamiyati bilan olib borayotgan tashqi aloqalari qanchalik strategik hamda to'g'ri ekanligiga yana bir bora amin bo'lamiz. Jonajon O'zbekistonimizning jahon reytinglaridagi yuqori o'rnlarni egallashi doimo bardavom bo'lishiga ishonamiz va bunga bor kuchimizni ayamaymiz.

<sup>11</sup> Xalq so'zi 2021-29-oktyabr-231-son-3-bet

<sup>12</sup> Xalq so'zi 2021-24 dekabr -275-son-2-bet

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.**

1. Islom Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka      tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.O'zbekiston.1997-yil
2. Narzulla Jo'rayev. Agar ogoh sen...Toshkent .Sharq-1998
3. TulenovJ. Milliy qadryatlar va ijtimoiy taraqqiyot.Toshkent.O'zbekiston.1999.
4. Narzulla Jo'rayev,Tursunboy Fayzullayev. Mustaqil O'zbekiston Tarixi .Toshkent,"Gofur G'ulom-2009
5. Xalq so'zi // Shavkat Mirziyoyev Yangi O'zbekiston islohotlari me'mori .Mirzayusuf Rustamov. 2021-10-sentyabr-195-son
6. Xalq so'zi//Markaziy Osiyo davlatlari jips bo'lib,mintaqaning barqaror taraqqiyoti va farovonligiga intilmoqda.O'zA. 2021-7-avgust- 166- son
7. Xalq So'zi//Markaziy Osiyo davlatlarining birinchi maslahat uchrashuvi.Abu Bakr O'rozov O'zA maxsus muxbiri. 2018-16-mart- 52-son
8. Xalq so'zi//O'zbekiston diplomatiyasi.Jonpolat Kudayberganov Toshkent shaxri Yodju texnika institute rektori. 2021-29-oktyabr-231-son
9. Xalq so'zi //O'zbekistonning qator indekslardagi o'rni.Z.Xudoyshukurov.2021-24 dekabr -275- son